

UNEMPLOYMENT AS A FACTOR CAUSING POVERTY (TASHKENT REGION AS AN EXAMPLE)

Karakulov Nurbol Maidanovich

Acting Associate Professor of the Department of Geography and its teaching methodology, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Abstract. In this article examines the problem of unemployment in Tashkent region and its impact on poverty. In addition, the article analyzes the number of economically active population, employed and unemployed in the regions of Tashkent region.

Key words: Poverty, government program, inflation, women's employment, entrepreneurship, labor resources, economically active population, unemployment rate, jobs, economy.

БЕЗРАБОТИЦА КАК ФАКТОР БЕДНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ)

Каракулов Нурбол Майданович

и.о. доцента кафедры географии и методики ее преподавания
Ташкентского государственного педагогического университета имени
Низами

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема безработицы в Ташкентской области и ее влияние на бедность. Кроме того, в статье анализируется численность экономически активного населения, занятых и безработных в регионах Ташкентской области.

Ключевые слова: Бедность, государственная программа, инфляция, женская занятость, предпринимательство, трудовые ресурсы, экономически активное население, уровень безработицы, рабочие места, экономика.

ISHSIZLIK- KAMBAG'ALLIKNI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMIL SIFATIDA (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

Karakulov Nurbol Maidanovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Geografiya va uni
oq'itish metodikasi kafedrasi dotsenti v/b

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyatidagi ishsizlik muammosi va uning kambag'allikka ta'siri ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, maqolada Toshkent viloyati hududlarida iqtisodiy faol aholi, ish bilan band va ishsizlar soni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, davlat dasturi, inflyatsiya, ayollar bandligi, tadbirkorlik, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, ishsizlik darajasi, ish o'rinlari, iqtisodiyot.

Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning samarali ishlashiga har qanday mamlakatdagi ishsizlik darajasi muhim ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik - mamlakatdagi mavjud ishchi kuchi bir qismining foydalanilmay qolishini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmagan qismi ishsizlar deyiladi [4].

Ishsizlik ayniqsa uning yuqori darajasi yomon oqibatlarga olib keladi. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari uning ta'sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi orqali baholanadi. Iqtisodiyot barcha ishlashni xohlagan va ishlay oladiganlar uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YalMning potensial YalMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YalM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi. Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YalM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YalM hajmining orqada qolishi 2,5 foizni tashkil qilishini ko'rsatadi [4]. Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalardan belgilangan me'yordan ortiqcha darajada foydalanish, ish vaqtdan keyin qo'shimcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir [4].

Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazishi mumkin. Jumladan, ishsizlikning ba'zi turlarining uzoq muddatli tavsifi ishchilarning o'z malakalarini yo'qotishlari hamda daromad va ijtimoiy mavqei jihatidan aholining nisbatan past toifasiga o'tib qolishiga va yakuniy natijada kambag'allikka olib keladi. Bu esa ularda o'z turmush tarzidan

qoniqmaslik, ijtimoiy faollikning yo‘qolishi, atrofdagilarga nisbatan loqaydlikning paydo bo‘lishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Natijada uzoq davom etgan surunkali ishsizlik millatning ruhiy sog‘ligiga putur yetkazishi mumkin. Ishsizlik o‘shishining muqarrar oqibati bo‘lib mamlakatdagi jinoyatchilikning o‘shishi va ijtimoiy keskinlik darajasining kuchayishi hisoblanadi. Ishsizlik shuningdek juda ko‘p muammolarga zamin yaratadi - oilalarda notinchlik paydo bo‘ladi, bolalarning tarbiyasi buziladi. Ishsizlik darajasining yuqori cho‘qqiga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Shunga ko‘ra, mamlakatdagi ishchi kuchi bandligini ta‘minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanishi zarur [4].

Ishsizlik muammosi Toshkent viloyatida ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Toshkent viloyatida umumiy mehnat resurslari soni 1 643 900 tani tashkil qiladi. Bu doimiy aholiga nisbatan 53,8 foizga teng. Shu jumladan viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 1627 400 kishini tashkil qiladi. Mehnat resurslariga nisbatan 99 foizni tashkil qilgan. Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar soni 16 500 kishiga teng bo‘lib, mehnat resurslariga nisbatan 1% ni tashkil qiladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra viloyatda mehnat resurslari soni 2017 yildan 2023 yilgacha (2022 yilni hisobga olmaganda) oshib berishi, doimiy aholiga nisbatan foizda kamayib borishi kuzatilgan (1-jadval).

1. Jadval. Toshkent viloyati mehnat resurslari tarkibi

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Mehnat resurslari	1623,9	1627,2	1607,3	1614,9	1622,5	1616,3	1643,9
doimiy aholiga nisbatan, foizda	57,1	56,5	55,0	54,7	55,2	54,0	53,9
shu jumladan:							
mehnatga layoqatli yoshdagi	1610,5	1613,7	1597,2	1604,6	1608,4	1602,7	1627,4

mehnatga layoqatli aholi							
doimiy aholiga nisbatan, foizda	56,6	56,0	54,7	54,4	54,7	53,5	53,3
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	99,2	99,2	99,4	99,4	99,1	99,2	99,0
mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	13,4	13,5	10,1	10,3	14,1	13,6	16,5
doimiy aholiga nisbatan, foizda	0,5	0,5	0,3	0,3	0,5	0,5	0,5
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	0,8	0,8	0,6	0,6	0,9	0,8	1,0

Izoh: Jadval Toshkent viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Toshkent viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni bo'yicha ma'lumotlar 2-jadvalda berilgan.

Bizga ma'lumki iqtisodiy faol aholi tarkibiga mehnat bilan band bo'lgan fuqarolar va ishsizlar kiradi. Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi tarkibiga esa mehnat bilan band deb hisoblanmaydigan shaxslar, shu jumladan: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar, uy bekalari va bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar hamda ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar kiradi [1].

Toshkent viloyatida iqtisodiy faol aholi soni jami 1 329 100 kishini tashkil qilgan. Ulardan iqtisodiyotda bandlar 93.1%, yoki 1 238 600 kishini, ishsizlar soni 90 500 kishini tashkil qiladi. Viloyat miqiyosida umumiy ishsizlik darajasi 6.8 foizga yetadi. Viloyatda iqtisodiy nafaol aholi soni jami 314 800 kishini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faol aholi soni bo'yicha viloyatda shaharlar ichida Olmaliq shahari yetakchi bo'lib, shaharda 72 100 kishiga tengdir. Eng kam ko'rsatkich Ohangaron shaharida kuzatiladi (19 600 kishi) (2-jadval).

Viloyat tumanlaridan iqtisodiy faol aholi soni bo'yicha Yangiyo'l 94 500 kishi bilan birinchi o'rinda turadi. Keyingi o'rinlarda Zangiota (82 200), Toshkent (82 500), Bo'stonliq (81 200), Qibray (79 300) tumanlari egallaydi. So'ngi o'rinda Ohangaron tumani egallaydi. Bu tumanda jami 43 600 iqtisodiy faol aholi mavjud.

Iqtisodiy faol aholi tarkibida iqtisodiyotda bandlar soni shaharlar ichida Olmaliq shahri birinchi o'rinda. Olmaliqda 72 100 kishi iqtisodiyotda band. Keyingi o'rinlarda Chirchiq (67 100), Angren (66 000), Bekobod (42 000), Nurafshon (35 200), Yangiyo'l (24 700) va so'ngi o'rinda Ohangaron (18 200) shahri egallaydi (2 jadval).

Bu ko'rsatkich bo'yicha tumanlar kesimida tahlil qilinganda birinchi o'rinda Yangiyo'l tumani turadi. Tumanda 88 000 kishi tuman iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida banddir. Keyingi o'rinlarda Zangiota, Toshkent, Bo'stonliq, Qibray kabi tumanlari, so'ngi o'rinda Ohangaron tumani egallaydi.


2. Jadval. Toshkent viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar	
2023				
Toshkent	1 329,1	1 238,6	90,5	6,8
Angren sh.	70,7	66,0	4,7	6,7
Olmaliq sh.	72,1	67,5	4,6	6,3
Bekobod sh.	45,0	42,0	3,0	6,7
Chirchiq sh.	71,8	67,1	4,7	6,6
Yangiyo'l sh.	26,5	24,7	1,8	6,8
Nurafshon sh.	37,6	35,2	2,4	6,3
Ohangaron sh.	19,6	18,2	1,4	6,4
tumanlar:				
Ohangaron	43,6	40,8	2,8	6,4
Oqqo'rg'on	48,2	44,7	3,5	7,3
Bekobod	66,9	62,2	4,7	7,0
Bo'stonliq	81,2	75,7	5,5	6,9
Bo'ka	55,5	51,5	4,0	7,2
Qibray	79,3	73,8	5,5	7,0
Zangiota	82,2	76,7	5,5	6,7
Parkent	70,2	65,3	4,9	7,0

Pskent	46,9	43,6	3,3	6,9
Chinoz	59,0	54,9	4,1	6,9
Quyichirchiq	51,6	48,0	3,6	7,1
O'rtachirchiq	65,4	61,0	4,4	6,8
Yuqorichirchiq	59,1	55,0	4,1	6,9
Yangiyo'l	94,5	88,0	6,5	6,9
Toshkent	82,2	76,7	5,5	6,6

Izoh: Jadval Toshkent viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Toshkent viloyatida ishsizlik muammosi bugungi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Viloyatning yirik shaharlari va tumanlarida ishsizlik darajasi haqidagi ma'lumotlar 1-rasmda berilgan. Diagramma ma'lumotlariga ko'ra viloyatda ishsizlik darajasi 6.8% tashkil etadi. Bu 2022-yilga nisbatan 2% ga kamdir. 2022-yilda ishsizlik darajasi 8.8% ga ega bo'lgan (1-Rasm). 2017-2023 yillar oralig'ida uning eng past darajasi 2017-yilda kuzatilib 5.2% ni tashkil qilgan. 2020-yildagi pandemiya davrida ko'plab ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, transport korxonalarini vaqtincha ishlamaganligi sababli ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan (1-Rasm).



1. Rasm. Toshkent viloyatida ishsizlik darajasi dinamikasi

Izoh: Diagramma Toshkent viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Pandemiya qoidalari yumshatilishi va keyinchalik barcha cheklovlar olib tashlanishi hisobiga iqtisodiyot tarmoqlari to'liq quvvat bilan ishlashi natijasida uning darajasi asta sekinlik bilan pasaya boshlandi.

Ishsizlik darajasining eng yuqori ko'rsatkichi 6.8% shaharlar ichida Yangiyo'l shahrida qayd etilgan. Eng past ko'rsatkich viloyat markazi Nurafshon va yirik sanoat markazi bo'lmish Olmaliq shaharlariga to'g'ri keladi.

Ishsizlarning umumiy soni bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi natijalarni ko'rish mumkin. Ishsizlarning umumiy soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Angren va Chirchiq shaharlariga tog'ri keladi. Har ikkala shaharda jami 4 700 dan ishsiz fuqoralar istihomat qiladi. Eng kam ishsizlar Ohangaron shahriga (1 400) to'g'ri keladi.

Tumanlar kesimida tahlil qilsak uning eng yuqori ko'rsatkichi Oqqo'rg'on tumanida qayd etilgan. Bu shaharda ishsizlik 2023 yilda 7.3% ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin. Ishsizlik darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan (6.8%) yuqori bo'lgan tumanlar qatoriga Bo'ka (7.2%), Quyichirchiq (7.1), Bekobod (7.0%), Qibray (7.0%), Parkent (7.0%), Bo'stonliq (6.9%), Piskent (6.9%), Chinoz (6.9%), Yuqorichirchiq (6.9%), Yangiyo'l (6.9%) tumanlari joy olgan. Viloyat o'rtacha ko'rsatkichiga teng bo'lgan faqat bitta ma'muriy birlik O'rtachirchiq tumani mavjud. Qolgan tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past darajaga ega.

Tumanlar ichida ishsizlikning eng past darajasi Ohangaron tumanida (6.4%) qayd etilgan.

Tumanlar kesimida ishsizlarning umumiy soni bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi natijalarni ko'rish mumkin. Ishsizlarning umumiy soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yangiyo'l tumaniga tog'ri keladi. Mazkur tumanda jami 6 500 dan ishsizlar ro'yhatga olingan. Eng kam ishsizlar Ohangaron tumaniga (2 800) to'g'ri keladi.

Ishsizlik muammosini tahlil qiladigan bo'lsak viloyatga bo'ysinuvchi shaharlarga qaraganda tumanlarda uning darajasi birmuncha yuqori ekanligini e'tirof etish mumkin. Bunga asosiy sabab shaharlarda infratuzilmaning yaxshi rivojlanganligi, yirik sanoat korxonalarining faoliyat ko'rsatayotganligidadir.

Ishsizlikni kamaytirish maqsadida viloyatda amalga oshirilayotgan ishlarni kuchaytirish va quyidagi chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiiq etishni tavsiya etamiz.

1. Shahar va qishloq aholi punktlari infratuzilmasini yaxshilash va modernizatsiyalash;
2. Logistik markazlar barpo qilish;
3. Kichik va o'rta sanoat korxonalarini ishga tushirish;
4. Faoliyati to'xtab qolgan sanoat korxonalarini qayta ishga tushirish maqsadida ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada qo'llab quvvatlash [9];
6. Oilaviy tadbirkorlikka alohida e'tibor berish va imtiyozli kreditlar ajratish [8];
7. Kasanachilik va hunarmandchilik sohasini mahalliy imkoniyatlarni hisobga olib rivojlantirish [8];
8. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari shu jumladan turizmni rivojlantirish [9];
9. Eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishni maqsadli va samalari qo'llab quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;
10. Tuproqlar sho'rlanishini kamaytirish va yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilash;
11. Suvni tejoyvchi texnologiyalar: tomchilatib, yomg'irlatib va sug'orishning boshqa innovatsion turlaridan foydalanishni amalga oshirish;
12. Suvsizlikka va kasallikka chidamli qishloq xo'jalik ekinlari navlarini ekishni rag'batlantirish;
13. Mahalliy malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish [9];
14. Kam ta'minlagan oilalarga imtiyozli foizsiz kreditlar ajratib tadbirkorlik bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yish;
15. Hududlarda biznes inkubatorlar tashkil etish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki Toshkent viloyatida ishsizlik muammosini hal qilish ham viloyat ham mahalliy hokimiyat organlari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Aholi bandligini oshirish va ishsizlar sonini kamaytirish uchun viloyatda iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirishni jadallashtirish lozim bo'ladi. Bunda albatta ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va iqtisodiyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

References:

1. Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2017-yil 22-dekabrda 1011-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi
3. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
4. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi darslik Barkamol fayz media 2017 569-571 betlar
5. Karakulov.N. M., Amanbayeva. Z. A., Sultanova. N. B., Xidirov M. S. Development of tourism in Uzbekistan. *European science review*, 1(1-2), 2019
6. Karakulov.N. M., Nugmanova A. Place and Role of the Urtachirchik District in the Development of the Economy of the Tashkent Region. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10 (3) 2023
7. Karakulov.N. M., Safarov U.X., The Organization of Activities in the Agro-Industrial Complex of Urtachirchik District. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(12), 2023
8. Karakulov.N. M., U.X.Safarov, D.B.Mamadaliyeva, Sh.M.Akbaraliyev The role of family entrepreneurship in reducing poverty in the Urtachirchik district of the Tashkent region «Экономика и социум» международный научно-практический журнал, Россия , №9 (124) 2024
9. Karakulov.N. M., Abdullayev I.X., M.Xidirov The importance of service networks in poverty reduction in Tashkent region, *Journal of geography and natural resources* Volume 4, №5, September 2024
10. Karakulov.N. M., Risbekov A.J., Usmonova G.E. Socio-economic geographical factors influencing the level of poverty «Экономика и социум» международный научно-практический журнал, Россия , №9 (124) 2024

Internet sources:

1. <https://gov.uz/oz/bv>
2. <http://ru.euronews.com/2013/04/02/spanish-unemployment-edges-down/.572>
3. <https://toshvilstat.uz/uz/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/08/unemployment/>
5. <https://scienceweb.uz/publication/20713>